

BILIMLARNI O'ZLASHTIRISHNI BOSHQARISH

Jumanova Shaxzoda Shuhrat qizi
Chirchiq davlat pedagogika universiteti
Xorijiy til va adabiyoti yo'nalishi
1-bosqich talabasi
shaxzodajumanova2206@gmail.com

Annotatsiya

Ushbu maqolada bilimlarni o'zlashtirishni boshqarish masalasi ta'lim jarayonining muhim omili sifatida yoritiladi. Unda o'quvchilarning bilimni qabul qilishi va bu bilimlarni amaliyotda qo'llash jarayonlari va bosqichlari tahlil qilinadi. Shuningdek, o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi hamkorlik, motivatsiya berish jarayoni ochib beriladi. Bundan tashqari, zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo'llash orqali o'quvchilarning mustaqil fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish yo'llari ko'rib chiqiladi.

Kalit so'zlar

Bilim, o'qituvchi, o'quvchi, ta'lim jarayoni, o'zlashtirish, samaradorlik, baholash

Аннотация

В данной статье рассматривается проблема управления усвоением знаний как важный фактор образовательного процесса. В ней анализируются процессы восприятия знаний учащимися и их применения на практике. Также раскрывается значение сотрудничества между учителем и учеником, мотивации, а также индивидуального обучения. Анализируются этапы процесса управления знаниями. Кроме того, рассматриваются пути развития навыков самостоятельного мышления учащихся с использованием современных педагогических технологий.

Ключевые слова

Знание, учитель, ученик, образовательный процесс, усвоение, эффективность, оценивание.

Abstract

This article highlights the issue of managing the acquisition of knowledge as an important factor in the educational process. It analyzes the processes and stages of students' perception of knowledge and its practical application. It also reveals the cooperation between teacher and student, as well as the process of providing motivation. In addition, the ways of developing students' independent thinking skills through the use of modern pedagogical technologies are considered.

Keywords

Knowledge, teacher, student, educational process, acquisition, effectiveness, assessment.

KIRISH

Bugungi shiddat bilan rivojlanib borayotgan axborot asrida, ta'lim sifatini oshirishda bilimlarni o'zlashtirishni boshqarish masalasi muhim ahamiyat kasb etmoqda. Hozirgi kunda ta'lim tizimining asosiy vazifasi nafaqat tayyor bilimlarni uzatish, balki o'quvchilarda bu bilimlarni mustaqil egallash va boshqarishni shakllantirishdan iboratdir. Bunda o'quvchi ma'lumotni shunchaki yodlamasdan, uni tahlil qilish va hayotda

ishlata olish darajasiga chiqishi lozim. Bu jarayon o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi an'anaviy munosabatlarni yangi bosqichga ko'tarishni, ya'ni o'quvchini passiv ta'lim jarayonidan faol ta'lim jarayoniga olib borishni talab etadi. Bu ilmiy tilda "o'rganishni o'rganish" deb ataladi, ya'ni o'quvchi o'z ustida qanday ishlashni va bilimni qayerdan olib, qanday foydalanishni ongli ravishda tushunib yetadi.

O'quvchilarning bilimni qabul qilishi va o'zlashtirishi - bu shunchaki ma'lumotni tinglash jarayoni emas, balki bu ma'lumotlarni miyadagi mavjud bo'lgan tajribalar bilan bog'lash jarayonidir. Ya'ni, yangi olingan bilim o'quvchining avvalgi tushunchalari ustiga "g'isht" bo'lib tushishi va u yerda mustahkam o'rin egallashi lozim. Agar yangi ma'lumot hayotiy tajriba bilan bog'lanmasa, u tezda unutiladi. Shuning uchun ham bilimlarni o'zlashtirishni boshqarishda o'quvchining dunyoqarashini va qiziqishlarini inobatga olish muhim ahamiyatga ega. Bilimlarni o'zlashtirish jarayonini boshqarishda zamonaviy pedagogika va psixologiya fanining yirik vakillari o'ziga xos fundamental nazariyalarni ilgari surganlar. Ushbu jarayonlarning nazariy asosi amerika psixologi Devid Ozubel tomonidan ishlab chiqilgan "Ma'noli o'rganish" konsepsiyasida o'zining mukammal ifodasini topgan. Ozubel ta'kidlaganidek, ta'lim samaradorligini belgilovchi eng muhim omil-bu o'quvchining allaqachon biladigan narsalaridir. Olimning fikricha, yangi bilim o'quvchi xotirasida o'z-o'zidan paydo bo'lmaydi, balki u miyadagi mavjud "kognitiv struktura" bilan mantiqiy bog'lanishi shart. Ozubel bu bog'lovchi nuqtalarni "Langar tushunchalar" deb ataydi. Agar o'qituvchi taqdim etayotgan yangi "g'isht" o'quvchining miyasidagi mavjud langar tushunchalarga yopishmasa, bilim ma'nosiz axborotga aylanadi va miya uni keraksiz chiqindi sifatida chiqarib tashlaydi. Ozubel o'zlashtirishni boshqarishda "Ilgarilovchi tashkilotchilar" metodini taklif etadi. Bu metodga ko'ra, o'qituvchi murakkab mavzuni tushuntirishdan avval o'quvchining hayotiy tajribasiga yaqin bo'lgan umumiy ko'prikn qurishi lozim. Bu ko'prikn yangi bilim uchun poydevor vazifasini o'taydi. Masalan, iqtisodiyotdagi murakkab qonuniyatlarni tushuntirishdan avval o'quvchining kundalik bozor-o'char tajribasini eslatish - uning miyasidagi "langar"ni faollashtiradi. Shu nuqtai nazardan, Ozubel mexanik yodlashga qarshi chiqadi va o'quvchini bilimlarni tizimlashtiruvchi faol sub'yekt sifatida ko'radi. Uning nazariyasi shuni isbotlaydiki, bilimlarni o'zlashtirishni boshqarish-bu shunchaki ma'lumot uzatish emas, balki o'quvchining miyasidagi kognitiv xaritaning anglagan holda, yangi ma'lumotlarni ushbu xaritaga to'g'ri joylashtirish san'atidir. Bu yondashuv o'quvchida nafaqat bilimni eslab qolish, balki uni hayotning turli jabhalarida erkin qo'llash va yangi g'oyalar yaratish imkoniyatini shakllantiradi. Natijada, o'rganish jarayoni o'quvchi uchun begona majburiyatdan, shaxsiy intellektual ehtiyojga aylanadi. Buni quyidagi bosqichlarda tushuntirish mumkin:

Idrok etish : Bu jarayonda o'quvchi o'qituvchi tomonidan taqdim etilgan ma'lumotni qabul qiladi. Bunda darsning qiziqarliligi va o'quvchini jalb eta olishi muhim hisoblanadi. Ma'lumotni qayta ishlash : Bunda o'quvchi yangi bilimni tushunish uchun avval uni o'ziga qulay tarzda tahlil qiladi va o'z so'zlari bilan ifodalaydi. Amaliyot : Bilimning asl qiymati uning amalda qo'llanilishi bilan o'lchanadi. O'quvchi olgan bilimlari asosida loyiha tayyorlashi yoki hayotda turli jabhalarda qo'llay olishi bilan bu bilimlarni ko'nikmaga aylantira oladi.

Motivatsiya - bilim olishning asosi hisoblanadi. Motivatsiya haqida gap ketganda, eng birinchi navbatda Abraham Maslouni eslash joiz. Uning fikricha, o'quvchining bilim olishga bo'lgan intilishi paydo bo'lishi uchun uning bazaviy ehtiyojlari ya'ni xavfsizlik, o'ziga bo'lgan ishonch, ijtimoiy qabul qilinish kabilar qondirilgan bo'lishi kerak. Maslou fikriga ko'ra, agar o'quvchi xato qilishdan qo'rqsan yoki sinfdoshlari oldida masxara qilinishidan xavfsirasa, uning energiyasi bilim olishga emas, balki o'zini himoya qilishga sarflanadi. Shuning uchun bilimlarni boshqarishda o'qituvchi avvalo "xato qilish huquqi"

berilgan muhitni yaratishi shart. Faqat shundagina o'quvchining idrok qilish qobiliyati maksimal darajada ochiladi. Banduraning fikriga qaraydigan bo'lsak, motivatsiya o'quvchining "Men bu vazifani uddalay olaman!" degan ishonchiga bog'liq. Agar o'quvchi o'z kuchi bilan muvaffaqiyatga erishganini his qilsa, undagi motivatsiya "o'sish spiral" bo'ylab yuqoriga qarab ketadi. Bilimlarni o'zlashtirishni boshqarishda motivatsiyaning ahamiyati sezilarli darajada yuqori hisoblanadi. Motivatsiya orqali passiv holatdagi o'quvchini faol holatga olib chiqish mumkin. O'quvchi baho olishi, rag'batlantirilishi va tanlovlarda ishtirosh etishi orqali unda yangi bilim olish va o'z ustida ishlash ko'nikmalarini hosil qilish mumkin. Bunda o'qituvchining roli muhim hisoblanadi. Motivatsiyani kuchaytiruvchi eng muhim omillardan biri bu individual ta'limdir. Bu jarayonda har bir o'quvchining qabul qilish tezligi va qiziqishlari turlicha bo'lgani uchun, o'qituvchi har bir bolaga mos keladigan topshiriqlarni tanlashi kerak. Individual ta'lim o'quvchining o'ziga xosligini hisobga oladi, motivatsiya esa uni yangi bosqichga intilishga undaydi. Bu ikki omil birlashganda esa, o'quvchi passiv tinglovchidan o'z bilimini mustaqil boshqara oladigan faol shaxsga aylanadi.

Ta'limda zamonaviy texnologiyalardan foydalanish - bu faqat kompyuter ishlatish degani emas. Bu o'quvchini tayyor javobni kutishdan to'xtatib, o'z miyasini ishlatishga majbur qiladigan usullardir. Bunda o'qituvchi darsni tayyor qoidani aytish bilan boshlamaydi, darsni yechimi qiyin bo'lgan darsga oid savol yoki hayotiy jumboq bilan boshlaydi, bunday holatda o'quvchi javobni to'lish uchun o'zi harakat qiladi va mantiqiy fikrlash qobiliyatini ishga soladi. Bu o'quvchining mustaqil qaror qabul qilish ko'nikmasini shakllantiradi. O'quvchiga ma'lum mavzu bo'yicha loyiha ishi tayyorlash topshirilsa u vazifani bajarish davomida ma'lumotlarni saralashni va o'z fikrini tartibli bayon etishni o'rganadi. Darsda savol-javob va bahs munozara tashkil etish orqali o'quvchilarda bir-birini tinglashni, boshqalar fikrini hurmat qilishni va tanqidiy fikrlashni shakllantirish mumkin. Shuningdek, bunday munozarali muhit o'quvchida o'z fikrini qo'rqmasdan bayon etish va xatolar ustida ishlash ko'nikmasini tarbiyalaydi. Natijada, o'quvchi axborotni shunchaki xotirada saqlaydigan "ombor" emas, balki uni tahlil qila oladigan va amaliyotda samarali qo'llay oladigan ijodkor shaxsga aylanadi. Zamonaviy texnologiyalarning asl maqsadi o'quvchini mustaqil ravishda bilimlar olamiga yo'l topa olishiga ko'maklashish. Zamonaviy texnologiyalardan foydalanishning ushbu metodologik asosi kognitiv psixologiya namoyandasi Jerom Brunerning "Kashfiyot orqali o'rganish" nazariyasida o'zining yaqqol ifodasini topgan. Bruner ta'kidlaganidek, eng mustahkam bilim o'quvchiga tayyor holda berilgani emas, balki uning o'zi tomonidan "kashf etilgan" bilimdir. Olimning fikricha, ta'lim jarayonining boshqaruvchisi bo'lgan o'qituvchi o'quvchiga faktlarni shunchaki yodlatmasligi, aksincha, uni izlanishga undaydigan "Skaffolding" ya'ni "Ko'prik qurish" usulini qo'llashi lozim. Bunda o'qituvchi o'quvchining atrofida shunday intellektual muhit yaratadiki, o'quvchi murakkab hayotiy jumboqlarni yechish jarayonida o'zining kognitiv strukturasi mustaqil ravishda qurib boradi. Bruner nazariyasiga ko'ra, o'quvchi o'zi izlanib topgan ma'lumotni mavjud tajribasi bilan bog'laganda, miyada "kodlash tizimi" hosil bo'ladi. Bu tizim o'quvchiga kelajakda duch keladigan o'xshash muammolarni yangicha usulda hal qilish imkonini beradi. Yuqorida keltirilgan loyiha ishlari va bahs-munozaralar aynan Bruner targ'ib qilgan faol o'rganish modellaridir. Bunda o'quvchi shunchaki passiv "axborot qabul qiluvchi" emas, balki bilimlarni qayta ishlovchi va yangi mazmun yaratuvchi "kichik tadqiqotchi"ga aylanadi. Shu nuqtai nazardan, zamonaviy texnologiyalarning roli o'quvchining intellektual erkinligini ta'minlash va unda kashfiyotga yo'naltirilgan tafakkurni shakllantirishdan iboratdir. Brunerning ushbu yondashuvi, xatolardan qo'rqmaslik va tanqidiy fikrlash orqali o'quvchini bilimlar olamida o'z yo'lini mustaqil

topa oladigan "ijodkor shaxs" darajasiga ko'taradi. Bu esa bilimlarni o'zlashtirishni boshqarishning eng samarali va istiqbolli strategiyalaridan biridir.

XULOSA:

Xulosa qilib aytganda, bugungi ta'lim tizimida ma'lumotni shunchaki berish yetarli emas, balki o'quvchini mustaqil o'rganishga o'rgatish eng muhim vazifadir. Bilimni qabul qilishdan tortib, uni amaliyotda qo'llashgacha bo'lgan har bir bosqich o'quvchining fikrlash doirasini kengaytirishga yordam beradi. Bunda o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi hamkorlik va to'g'ri berilgan motivatsiya o'quvchini darsga qiziqтира oladi. Zamonaviy texnologiyalarni darsga olib kirish va samaralo qo'llash esa o'quvchini tayyor javobni kutmasdan, o'z miyasini ishlatib yechim topishga va mustaqil qaror qabul qilishga o'rgatadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Fayziyeva.U, Jumayev. N — Umumiy psixologiya. Buxoro, 2021
2. Xaydarov.F, Xalilova. N — Umumiy psixologiya. Toshkent, 2010
3. P. I. Ivanov, M. E. Zufarova — Umumiy psixologiya. Toshkent, 2008
4. E. G'o'ziyev — Umumiy psixologiya. Toshkent, 2002
5. Ziyo.uz